



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 06 | pp. 263-270 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI NATIJALARINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Xamidova Zarifa Urol qizi,
TDIU “Byudjet hisobi va
g’aznachilik” kafedrası dosenti,
PhD., dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit xizmati faoliyati natijalarini umumlashtirish hamda rasmiylashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida ichki audit tadbirlarini amalga oshirishda auditorlik dalillarini to‘plash va hujjatlashtirish, olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, audit hisobotini tayyorlash, shuningdek, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishning mazmuni va asosiy vazifalari yoritilgan. Ichki auditorlar tomonidan hisobotlarni shakllantirishda uchraydigan muammolar, audit natijalarini umumlashtirishda e’tiborga olinishi lozim bo’lgan muhim jihatlar hamda xalqaro amaliyotda qo’llaniladigan zamonaviy audit hisoboti va xulosasi shakllari tahlil qilingan. Tadqiqot yakunida davlat sektorida ichki audit natijalarini rasmiylashtirish, tavsiyalarning bajarilishini monitoring qilish va ichki audit xulosasini amaliyotga joriy etish bo’yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: ichki audit, davlat sektori, ichki audit hisoboti, ichki audit xulosasi, auditorlik dalillari, chora-tadbirlar rejasini, ijro nazorati, audit standartlari, monitoring, hisobdorlik.

Аннотация. В статье исследованы теоретические и практические аспекты обобщения и оформления результатов деятельности службы внутреннего аудита государственных органов и организаций. В процессе исследования рассмотрены сбор и документирование аудиторских доказательств, анализ полученной информации, подготовка аудиторского отчёта, а также содержание и основные задачи плана мероприятий, направленного на устранение выявленных недостатков. Проанализированы проблемные аспекты формирования отчётности внутренними аудиторами, существенные вопросы, которые необходимо учитывать при обобщении результатов аудита, а также современные формы аудиторских отчётов и заключений, применяемые в международной практике. По итогам исследования разработаны научно-практические предложения по совершенствованию оформления результатов внутреннего аудита в государственном секторе, мониторингу выполнения рекомендаций и внедрению заключения внутреннего аудита в практическую деятельность.

Ключевые слова: внутренний аудит, государственный сектор, отчёт внутреннего аудита, заключение внутреннего аудита, аудиторские доказательства, план мероприятий, контроль исполнения, стандарты аудита, мониторинг, подотчётность.

Abstract. This article examines the theoretical and practical aspects of summarizing and formally documenting the results of internal audit activities in public-sector bodies and

organizations. The study addresses the collection and documentation of audit evidence, the analysis of information obtained during internal audit engagements, the preparation of audit reports, and the development and principal objectives of action plans designed to remedy identified deficiencies. It also analyzes the challenges encountered by internal auditors in preparing reports, the key considerations involved in consolidating audit results, and the contemporary forms of internal audit reports and conclusions applied in international practice. Based on the findings, the study develops practical and methodological recommendations for improving the formalization of internal audit results in the public sector, monitoring the implementation of audit recommendations, and introducing internal audit conclusions into professional practice.

Keywords: *internal audit, public sector, internal audit report, internal audit conclusion, audit evidence, action plan, implementation control, auditing standards, monitoring, accountability.*

KIRISH

Ichki auditning asosiy jihatlaridan biri tashkilotning faoliyatini yaxshilashga yordam berishdir. Shuning uchun, ichki audit tadbiri o'tkazilishi haqida tadbir boshlanishidan oldin xabardor qilinadi. Ichki audit obyektlarini ichki audit tadbiri haqida xabardor qilish ichki audit obyektiga ichki audit tadbiri boshlanishidan oldin tadbirga tayyorgarlik ko'rish, yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Ichki audit xizmatining asosiy faoliyatlaridan birinchisi xavf tahlili asosida yillik ichki audit rejasini tuzish, ichki audit tadbirini samarali o'tkazish ikkinchisi esa ichki audit tadbiri natijalarini rasmiylashtirishdir.

Ichki audit xizmati tashkilot faoliyatini baholashga qaratilgan, uni mavjud va kutilayotgan risklardan ogohlantiruvchi va ichki nazorat tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatning samaradorligi yuzasidan mustaqil va holisona fikr yoki maslahat beruvchi tizimdir. Ichki auditning ko'lam faqatgina qo'yilgan talablarga, qonunlarga yoki tashkilot vazifalariga muvofiqlikni tekshirish bo'lib qolmay, balki tashkilotning unumdorligini va uning resurslarining samarali foydalanilishi bo'yicha maslahatchi sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat sektorida ichki audit bo'yicha yurtimizda va xorij mamlakatlarida ko'pgina olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. Aynan, davlat sektorida ichki audit xizmati so'nggi yillarda ko'p o'rganilayotgan va muammoli jihatlar ko'p bo'lgan soha hisoblanadi.

O'zbekistonlik olim Shamsitdinova X. o'z tadqiqotida oliy talim muassasalarida moliyaviy boshqaruvni takomillashtirishning iqtisodiy asoslarini tahlil qilgan. U davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishning samaradorligini oshirishda ichki audit tizimini mustahkamlash zarurligini asoslab bergan.[4]

Iqtisodchi olim L.A.Bekbotova fikriga ko'ra "ichki audit korporativ boshqaruv natijasida aniqlanadigan xavflarni boshqarish jarayonida ichki nazorat tizimi samaradorligining ishonchliligi va kafolatlanganligini baholash funksiyasini bajaradi.[5]

Shuningdek, olimaning fikriga ko'ra ichki audit tashkilot faoliyatini baholovchi mustaqil bo'linma hisoblanadi, tizimli va tartibli yo'nalishlar orqali belgilangan maqsadlarga erishishda yordam beradi.

Rus olimi A.I.Lukashevni fikrlariga ko'ra: "Hozirgi vaqtda ichki moliyaviy nazorat odatda byudjet mablag'lari bosh mamurining byudjet munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar bilan belgilangan byudjet vakolatlarini amalga oshirish talablariga rioya qilish uchun nazorat harakatlari orqali amalga oshiriladigan ichki jarayoni sifatida tushuniladi"[6]

AQSh olimlari orasida Mark DeFond davlat sektori auditining sifat mezonlarini o'rganib, moliyaviy nazoratning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqqan.[7]

Oxirgi yillar oralig'ida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida davlat sektorida ichki auditning raqamlashtirilishi, shaffoflik tamoyillarining kuchaytirilishi va audit tizimining xalqaro standartlarga integratsiyalashuvi asosiy ilmiy yo'nalishlar sifatida shakllangan. O'zbekiston olimlarining ishlari milliy tajribaga asoslangan bo'lsa, xorijiy tadqiqotchilar (AQSh, Yevropa, Osiyo) nazoratni samarali tashkil etish uchun ilg'or texnologiyalar, elektron audit, va "blockchain" nazorat tizimlarini joriy etish g'oyalarini ilgari surgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat tashkilotlari va organlarida ichki audit nazoratlarini tashkil qilish qabul qilingan meyoriy huquqiy hujjatlar asosida amalga oshiriladi. Ichki audit tadbiri bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich alohida yondoshuvni talab qiladi. Auditorlik tadbirining har bir bosqichini bajarish uchun axborot yig'ishda ichki auditorlar auditorlik topshirig'ining maqsadi va hajmiga taalluqli axborotga etibor qaratadilar. Yig'ilgan va tahlil qilingan axborotlar eng so'nggi bosqichda umumlashtiriladi va hisobot yoziladi.

Ichki audit tadbiri natijalari ichki audit tadbiri hisoboti shaklida rasmiylashtiriladi. Ichki audit tadbiri hisobotida ichki audit tadbiri natijalari, tahlillar, kuzatishlar, taklif va tavsiyalar, chora-tadbirlar rejasi hamda ichki audit obyekti tomonidan taqdim etilgan fikr va mulohazalar (agar mavjud bo'lsa) aks ettiriladi. [2]


Bizning fikrimizcha, hisobot ichki audit xizmati ishidagi asosiy hujjat bo'lib, u asosan tashkilot rahbari uchun beriladi. U tashkilot rahbariga tashkilotning moliyaviy holati, mavjud xatolar va kamchiliklar hamda ijobiy o'zgarishlar haqida malumot beradi. Bundan tashqari, hisobotda aniqlangan xatolar va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar va tavsiyalar ko'rsatilgan.

Ichki audit tadbiri hisoboti - ichki audit tadbiri yakunlari bo'yicha rasmiylashtiriladigan va o'zida ichki audit tadbiri davomida aniqlangan holatlar, jumladan qonunbuzilish holatlari, byudjet intizomi holati, kuzatishlar natijalari, taklif va tavsiyalar, ichki audit tadbiri hisobotida keltirilgan taklif va tavsiyalarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi hamda ichki audit obyekti tomonidan taqdim etilgan fikr va mulohazalar (agar mavjud bo'lsa) aks etadigan hujjat. [1]

To'liq hisobotni tayyorlash ichki audit faoliyatining sifatiga bog'liq. Ichki audit faoliyatining sifati bevosita ichki audit xizmati xodimlarining bilim, ko'nikma va tajribasini o'z ichiga olgan salohiyatiga bog'liq.

Ichki auditorlar auditorlik topshirig'i natijalarini tegishli tomonlar etiboriga yetkazadilar va rahbariyat tomonidan tavsiyalar yoki tadbirlar rejalari bajarilishi monitoringini amalga oshiradilar.

Ichki audit tadbiri jarayoni, shu jumladan audit dalillari ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi tomonidan ish hujjatlari ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Ish hujjatlari ichki audit xizmati tomonidan ichki audit tadbiri davomida tayyorlangan hujjatlar, audit usuli natijalari, bayonnomalar, dalolatnomalar, malumotnomalar, ko'rsatmalar, hisobot, taklif va tavsiyalar, tahlillar, chora-tadbir rejalarini o'z ichiga oladi



1-rasm. Ichki audit hisobotining xususiyatlari

Manba: muallif tomonidan Ichki auditorlar instituti (IIA) standartlari asosida tuzilgan [9].

Ichki auditorlar auditorlik topshirig'i natijalarini tasdiqlovchi axborot va dalillarni hujjatlashtirishlari kerak. Tahlil, baholash natijalari va topshiriqqa taalluqli malumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar shunday rasmiylashtirilishi kerakki, xabardor va aqli raso ichki auditor yoki xuddi shunday xabardor va vakolatli boshqa shaxs ishni takrorlashi va auditorlik topshirig'ining xuddi shunday natijalarini olishi mumkin.[9]

Ichki auditorlar va auditorlik topshirig'ining rahbari auditorlik topshirig'i hujjatlarini aniqlik, o'rinlilik va to'liqlik nuqtai nazaridan tekshirishi kerak. Ichki audit rahbari topshiriq hujjatlarini tekshirishi va tasdiqlashi kerak. Ichki auditorlar qo'llaniladigan qonun hujjatlariga va (yoki) meyoriy hujjatlarga, shuningdek, ichki audit va tashkilot funksiyalarining siyosati va jarayonlariga muvofiq auditorlik topshirig'i hujjatlarini saqlashlari kerak.

Auditorlik topshirig'i natijalari to'g'risidagi yakuniy xabarning uslubi va formati tashkilotdan tashkilotga farq qiladi. Ichki audit rahbari tegishli shablon va jarayonlarni belgilashi mumkin.

Yakuniy xabarning bir nechta tahririni elon qilish mumkin, ularning formati, mazmuni va tafsilotlari aniq maqsadli auditoriyaga, audit obyekti to'g'risidagi bilimlar darajasiga, unga kuzatuvlar va xulosalarning tasir darajasiga, shuningdek axborotdan foydalanish bo'yicha rejalariga bog'liq.

Yakuniy xabarni auditorlik hisoboti shaklida elon qilishda u majburiy bo'lganlarga qo'shimcha ravishda keyingi komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin:

- sarlavha;
- malumotnoma (audit obyekti faoliyatining qisqacha sharhi);
- audit obyekti faoliyatining ijobiy jihatlarini tavsiflash va (yoki) hamkorlik uchun minnatdorchilik bildirish;
- tarqatish ro'yxati.

Auditorlik hisobotini tekshirish va uni taqdim qilishdan oldin tegishli shartlar bajarilgani va hisobotning xususiyatlari to'liq qamrab olinganligiga ishonch hosil qilish kerak.

Bajarilgan ishlar topshiriqning maqsadi va hajmiga hamda standartlarga muvofiq bo'lishi.

Topshiriq natijalari aniq bayon etilishi va tegishli, ishonchli hamda yetarli axborot bilan asoslanishi.

Audit obyekti rahbariyati bilan axborot almashinuviga qo'yiladigan talablarga rioya qilinishi.

2-rasm. Ichki audit hisoboti to'liqligini taminlovchi jihatlar

Manba: muallif tomonidan Ichki auditorlar instituti (IIA) standartlari asosida tuzilgan [9].

Ichki audit tadbiri hisoboti tasdiqlangandan so'ng uch ish kuni ichida belgilangan tartibda "Davlat auditi" dasturiy kompleksiga kiritiladi. Ichki audit tadbiri hisobotida ichki audit tadbiri davomida aniqlangan audit dalillari, ijobiy o'zgarishlar va aniqlangan salbiy holatlar, kamchiliklar hamda nomuvofiqliklar xolis aks etirilishi shart. Ichki audit obyekti tomonidan ichki audit tadbirini o'tkazish guruhi bilan birgalikda taklif va tavsiyalar asosida chora-tadbirlar rejasi tuziladi hamda ichki audit obyekti rahbari tomonidan imzolanadi. Chora-tadbirlar rejasi ichki audit tadbiri hisobotiga ilova qilinadi.[3]

Ichki auditning xorijiy tajribasini o'rganganimizda, ichki audit xizmati faoliyati natijalari hisobot shaklida rasmiylashtirilganini va hisobotning asosiy maqsadi tashkilot rahbariga hisobot orqali tashkilot faoliyati haqida ishonchli malumot berish ekanligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, biz ilmiy ishda Ichki audit faoliyati to'g'risidagi hisobotni rasmiylashtirish bo'yicha bir qator takliflarni beramiz. Bu holda, hisobotda ko'rsatilgan malumotlarni shartli ravishda uch qismga bo'lishimiz mumkin.

Ichki audit faoliyati bo'yicha hisobot berish ko'rsatmalari

Vazirlik va idoraning moliyaviy faoliyati bo'yicha umumiy xulosa va takliflar	Vazirlik va idoraning moliyaviy faoliyati, ichki nazorat holati, aniqlangan xatarlar hamda ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar, shuningdek faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari yoritiladi.
Hisobot davrida ichki audit xizmati tomonidan amalga oshirilgan faoliyat to'g'risida ma'lumot	Yillik rejaning bajarilishi, o'tkazilgan ichki audit tadbirlari, umumiy statistik ma'lumotlar, taklif va tavsiyalar hamda ularning ijrosi, shuningdek bajarilmagan vazifalarning sabablari va mavjud muammolar ko'rsatiladi.
Ichki audit xizmati sifatini ta'minlash va yaxshilash bo'yicha bajarilgan ishlar hamda kelgusidagi rivojlantirish rejalari	Rejalashtirish va audit tadbirlarini o'tkazish sifatini oshirish, xodimlar malakasini rivojlantirish, kadrlar bilan ta'minlash va ichki audit xizmatini kelgusida takomillashtirish choralari bayon etiladi.

3-rasm. Ichki audit faoliyati hisobot berish bo'yicha ko'rsatmalar

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining ichki auditga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari va IIA standartlari asosida tuzilgan [1–3; 9].

Ichki audit xizmati ichki audit tadbiri natijalari bo'yicha berilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish munosabati bilan tuzilgan chora-tadbirlar rejasining bajarilishini nazorat qiladi. Ichki audit xizmati tomonidan monitoring o'tkazish uchun masul xodimni tayinlash tavsiya etiladi. Biroq, ichki audit xizmati xodimlari soniga qarab, monitoring ichki audit xizmati rahbari yoki xodimi tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Bu holda, ichki audit muassasasi chorakda ichki audit xizmatiga harakatlar rejasining bajarilishi haqida malumot taqdim etadi. Malumotda ichki audit xizmati tomonidan berilgan taklif va tavsiyalarning bajarilmaganligi sabablari ko'rsatiladi. Shuningdek, u taklif va tavsiyalarni amalga oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi hujjatlarni taqdim etadi.

Ichki auditorlar masul shaxslar tomonidan ichki auditorlarning tavsiyalari yoki tadbirlar rejalari bajarilganligini belgilangan jarayonga muvofiq tasdiqlashi kerak, unga quyidagilar kiradi:

- bajarilishi to'g'risida so'rovlar yuborish;
- riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida keyingi baholashlarni o'tkazish;
- monitoring tizimidagi tadbirlar rejalarning maqomini yangilash.

Ushbu jarayonlar hajmi kuzatuvlarning ahamiyatiga qarab belgilanishi kerak. Agar rahbariyat tadbirlarni belgilangan muddatlarda bajarmagan bo'lsa, ichki auditorlar rahbariyatning tushuntirishlarini olishlari va hujjatlashtirishlari, shuningdek, bu masalani ichki audit rahbari bilan muhokama qilishlari kerak.

Ichki auditorlar dasturiy taminot, elektron jadval yoki tizimdan rahbariyat tadbirlar rejasini belgilangan muddatlarda bajarayotganini kuzatish uchun foydalanishlari mumkin. Monitoring tizimi qaysi tadbirlar rejasini tugallanmagan yoki tugallanish muddati tugallanganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, dastur yoki tizim risklarni baholashdan boshlab chora-tadbirlar rejasini bajarishgacha bo'lgan barcha hujjat aylanishini avtomatlashtirishi mumkin. Masalan, hujjat aylanishi jarayoni ijro muddatlari yaqinlashib kelayotgan tadbirlar rejalari to'g'risidagi bildirishnomalarni tegishli tomonlarga elektron pochta orqali avtomatik tarzda yuborishni o'z ichiga olishi mumkin.

Rahbariyat tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar rejalari kamchiliklarni samarali bartaraf etish imkonini berganligini tasdiqlash uchun keyingi baholashlarni o'tkazish muddatini belgilash mezonlari rahbariyat tomonidan bajarilishini tasdiqlash jarayoniga kiritilishi kerak. Keyingi baholashlar risklarning muhimligiga qarab tadbirlarning alohida tugallangan rejalarga nisbatan bajarilishi mumkin. Ayrim hollarda tartibga soluvchilar rahbariyatning tadbirlar rejalari to'g'risidagi hisobotlarni taqdim etishni talab qilishi mumkin.

Agar rahbariyat muqobil chora-tadbirlar rejasini to'g'risida qaror qabul qilsa va ichki auditorlar bunday reja qoniqarli yoki boshlang'ich rejadan yaxshiroq ekanligiga rozi bo'lsa, muqobil rejaning bajarilishini u tugaguncha kuzatib borish zarur.

Etibor qaratilishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat ichki audit tadbiri yakunida rasmiylashtiriladigan xulosani mavjud emasligi. Xalqaro amaliyotda davlat sektori ichki auditorlik xizmati ichki audit xulosasini rasmiylashtiradi. Ammo, mamlakatimizda davlat sektorida ichki audit xulosasi mavjud emas. Xususiylashtirishda ichki auditorlar xulosa yozishadi va bu xulosalar audit natijalari bo'yicha eng muhim hujjat hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, ichki audit tadbiri xulosasini joriy qilish maqsadga muvofiq. Chunki davlat sektorida davlat tashkilotlarining ayrim malumotlari, nazorat natijalari axborot xavfsizligi nuqtayi nazaridan maxfiy hisoblanadi. Ularni hisobotda yoritib, natijalarni elon qilish mumkin emas. Aynan ichki audit tadbiri xulosasi esa, cheklangan tartibdagi malumotlarni yoritib, natijani ijobiy yoki salbiyligi hamda umumiy malumotlarni ko'rsatadi. Bu esa, tashkilotda ichki audit natijalari bo'yicha umumiy axborotni beradi, maxfiy axborotlarni ko'rsatmagan holda natijani o'zgartirmaydi va ijtimoiy tarmoqlarda elon qilinishi mumkin.

Bundan tashqari ichki audit yakunlari bo'yicha xulosada topshiriq natijalari, topshiriq maqsadlari va rahbarlik maqsadlarini hisobga olgan holda bayon etiladi. Xulosa ichki auditorlarning umuman barcha auditorlik kuzatuvlarining muhimligi to'g'risidagi kasbiy fikrini o'z ichiga olishi kerak.

Ishonchni taminlash bo'yicha auditorlik topshirig'i yakunlari bo'yicha xulosa ichki auditorlarning audit obyekti rahbarlik qilish, risklarni boshqarish va (yoki) ichki nazorat jarayonlarining samaradorligi to'g'risidagi mulohazasini, shu jumladan, ular samaradorligi holatida tegishli tasdiqlashni o'z ichiga olishi kerak.

Xulosada kuzatuvlarning audit obyekti va tashkilotga ta'siriga taalluqli kontekst berilishi mumkin. Masalan, ayrim kuzatuvlar maqsadlarga erishish yoki risklarni audit obyekti darajasida boshqarishga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, ammo tashkilot darajasida emas.

Maslahat berish bo'yicha auditorlik topshirig'i yakunlari bo'yicha xulosa uning qiymati va hajmiga muvofiq bo'lishi kerak.

XULOSA

Davlat sektorida ichki audit natijalarini umumlashtirish, ish hujjatlarini yig'ish, tahlil qilish, hisobot yozish masalalari yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Davlat sektorida ichki auditni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi, jumladan ilg'or xorij mamlakatlar tajribasi, ularda ichki auditni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari, ichki auditni tashkil etish modellaridan O'zbekistonga amaliyotida foydalanish ichki auditning takomillashuviga xizmat qilishi kerak.

2. Davlat organlari va tashkilotlari ichki audit xizmatlari audit natijalari va hisobotlarini bir-birlari bilan bo'lishishlari kerak. Bu har ikkala subyektning davlat tuzilmalari oldida turgan xavf va muammolardan xabardor bo'lishiga va ularni bartaraf etish choralarini ko'rishiga yordam beradi.

3. Davlat sektorida ichki audit tadbiri natijalari bo'yicha hisobotni shakllantirishda uning xususiyatlari, ish hujjatlarining ishonchliligi, standartlar talablari hisobga olinganligi hamda malumotlarni shakllantirish bo'yicha ko'rsatmalarga rioya qilingan bo'lishi lozim.

4. Davlat sektorida ichki audit tadbiri natijalari sifatida ichki audit xulosasini yozishni amaliyotga tatbiq qilish zarur. Belgilangan shartlar va malum tartib asosida xulosa shakllantirish hamda ushbu xulosani ochiq va taqdim etiladigan axborot ko'rinishida ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 avgustdagi 416-son "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori;

2. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 24-oktyabrda 3394-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan «Ichki audit milliy standartlari»;

3. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022 yil 27- dekabrda 3406-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Ichki audit tadbirlarini o'tkazish qo'llanmasi";

4. Shamsitdinova X. (2023). Moliyaviy risklarni boshqarishning xalqaro amaliyoti va O'zbekiston tajribasi. – "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" jurnali, No 5

5. L.A. Bekbotova, Sistema vnutrennego kontrolya i vnutrenniy audit, Nauchnyy jurnal «Upravlenskiy uchët» №12, 2021;

6. Lukashov A. I. Sovershenstvovaniye vnutrennego finansovogo kontrolya i audita kak mexanizmov povysheniya effektivnosti ispolzovaniya byudjetnykh sredstv // Finansovyy jurnal. 2022. T. 14. № 6. S. 59-73. <https://doi.org/10.31107/2075-1990-2022-6-59-73>.)

7. Mark DeFond. (2019). Financial Development, Transparency, and Global Banking Integration. – Journal of Accounting Research, Vol. 57(1)

8. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik malumotlari milliy bazasi;

www.theiia.org – Xalqaro ichki auditorlar instituti rasmiy sayti

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

